
EHTIYOJMAND OILALARGA 300 KG.DAN BEPUL KO'MIR TARQATILDI

O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlis Senatining Orolbo'y mintaqasini rivojlantirish va ekologik qo'mitasi hamda O'zbekiston ekologik harakati tashabbusi bilan qish mavsumini betalofat o'tkazish maqsadida tashkil etilgan xayriya aksiyasi doirasida Toshloq tumanidagi ehtiyojmand oilalarga bepul ko'mir mahsulotlari tarqatildi.

Mahallalardagi kam ta'minlangan, moddiy yordamga muhtoj, maxsus ijtimoiy daftarlarga kiritilgan, nogironligi va betob farzandlari bor 51 ta ehtiyojmand oilalarga bepul ko'mir mahsulotlari yetkazib berilmoqda.

Qayd etish joizki, ko'rsatilayotgan beminnat yordamdan aholi o'z xonadonini isitishi uchun ko'mir bilan ta'minlanganligidan hursandchiligini bildirdilar.

2023-12-22 16:06:45